



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

milliy kuy-ohanglaridan begonalashgan avlodlar yetishib chiqa boshladi. Boshqacha aytganda, o'zbek xalqi o'z tili bilan birga yana o'z dili (musiqasi)dan ham uzoqlashtirila boshlandi. Milliy kuylar tarovatidan benasib yigit-qizlarimiz manqurdsifat parda-ohanglarida (ya'ni kelib chiqishi noma'lum o'z ildizini yo'qotgan) qo'shiqlar kuylab o'zligini unuta boshlayozdilar. Demak, endilikda oxir-oqibati milliy qadriyatlarimiz uchun xafli va halokatli bu oqimni zudlik bilan to'xtatib, vaziyatni haqiqat tomon o'zgartirish choralari amalga oshirish zarur bo'lmoqda"<sup>32</sup>. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqomshunos olim Ibrohimov Oqilxon Akbarovich ilmiy-ijodiy izlanishlari davomida o'zbek milliy musiqa san'ati rivoji uchun qayg'urdi.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Ibrohimov O.A. Maqom asoslari. – T.: “Turon-Iqbol”, 2018, 158-b.
2. Ibrohimov O.A. O'zbek xalq musiqa ijodi. *Metodik tavsiyalar*, – T., 1994
3. Ibrohimov O.A., Sadirov J. Musiqa. 7-sinf. Darslik. – T. “G'ofur G'ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 159-b.
4. Ibrohimov O.A. Maqom va tasavvuf xususida. // Rajabiyxonlik (ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – T., 1994, 60-70-bb.
5. Ibrohimov O.A. Umumiy ta'lim maktablarida maqomlarni o'rganish masalalariga doir. // Musiqada ta'lim va tarbiya birligi. – T., 1996, 69-73-bb
6. Ibrohimov O.A. Milliy tarbiyaning musiqiy asoslari. // Sog'lom avlod uchun jurnali. №7, – T, 1997, 6-7-bb
7. Maksumova F.Q. Boshlang'ich maqom ta'limining metodologik masalalari. Magistrlik dissertatsiyasi. – T., 2022, 101-bb

## **MILLIY MUSIQA MEROSIDA USTOZLAR YODI**

**Xayruddin XUDOYEV,**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*ixtisoslashtirilgan maktab musiqa to'garagi rahbari.*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada mumtoz musiqa san'atimizning nomoddiy madaniy meros durdonalaridan sanalmish – Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining “Ustoz-shogird” an'anasi o'laroq bizning kunlarimizgacha yetib kelishida o'zining fidokorona mehnatini ayamagan maqomdon ustoz xonanda va sozandalar haqida fikr yuritiladi.

*Shuningdek, folklor musiqa san'atining mahalliy musiqa an'analari kesimida bizning kunimizgacha takomil darajada yetib kelishida o'z mehnatini ayamagan xassos san'atkorlar ijodi haqida muxtasar bayon etiladi.*

**Kalit so'z:** hofiz, xonanda, maqom, folklor, meros, ohang, g'azal, qo'shiq.

Milliy musiqa merosi deganda, avvalambor barchaning ko'z o'ngida o'tmishdagi mehri daryo, bag'ri keng, qalbi go'zallik shaydosi bo'lgan limmo-lim burkangan piru-ustozlar, hofizu-bastakorlar gavdalanadi. Ular tomonidan ijro etilgan yuksak san'at asarlari birin ketin dunyo yuzini egallab olib, quyoshdek nur taratib biz va bizdan keyingi kelajak avlodga beminnat musiqiy me'ros bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ular ijrosidagi musiqiy asarlarda ko'tarinki kayfiyat, shiddat,

<sup>32</sup> Ibrohimov O.A. Umumiy ta'lim maktablarida maqomlarni o'rganish masalalariga doir. // Musiqada ta'lim va tarbiya birligi. – T, 1996, 69-b

ulug‘vorlik ustozlarning milliy musiqa merosimizga bo‘lgan yuksak e‘tiboridan nishon.

Bu ustozlar ortidan minglagan shogirdlar, jumladan, ular orasida xalq artistlari, hofizu-bastakorlar birin ketinlik bilan zanjirli bog‘liqlik asosida davomiylikni o‘z o‘rnida tadbiq etib me‘rosimizni ko‘z qora chig‘idek avaylab, bundan keyingi avlodlarga bekamu-ko‘st yetkazibgina qolmay, balki davom ettirish va musiqa merosimizni takomillashtirish uchun beminnat xizmat ko‘rsatishgan. Biz ustozlar oldida bu an’anani davom ettirib, shogirdlarga yetkazish albatta barchamizni oldimizda turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Jumladan, millatimizning faxri va iftixori bo‘lgan maqomlar mumtoz musiqa merosimizning ajralmas bir bo‘g‘inidir. Bunda go‘zal va betakror ohanglar, ajdodlarimiz dard va fig‘onlari bilan boyigan – Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari xazinasi butun dunyoda o‘zining betakrorligi bilan yuksak baholanadi.

Maqom san‘atini she‘riyat bobida asosiy ustunlari hisoblangan o‘zbek, tojik, fors va ozar mutafakkir shoirlaridan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Fuzuliy, Nizomiy, Boborahim Mashrab, Nodira, Uvaysiy kabi bir qancha ulug‘ mutafakkirlarning ibratli satrlari o‘laroq maqomlarimizning go‘zal ohanglari g‘azal bilan vobastadir.

Mumtoz musiqamizda ulug‘ ustoz san‘atkorlar, hofizu-bastakorlar, mutribu-sozandalar xizmati nihoyatda beqiyos. Shu o‘rinda, musiqiy ohangni o‘z o‘rnida tarannum etgan, kuyga ovozni bog‘lagan, undan dard naqsh solgan ustoz hofizu-sozandalar Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniyev, Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Levi Boboxonov, Domla Halim Ibodov, Jo‘raxon Sultonov, Hojixon Boltayev, Ma‘murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Orif Alimaxsumov kabi buyuk darg‘alar mustaqillik kunlarigacha yashab ijod etgan bo‘lsalar, bularning ijodidan bahramand bo‘lgan kelgusi avlod mehr-oqibat, tavoze‘, ishq-muhabbat, go‘zal xulq kabi chiroyli odatlarni o‘rganibgina qolmay, balki ustozlar o‘gitini, naqadar yuksak e‘zozlab, boyitib kelajak avlodga mukammal o‘rgatish orqali yoshlarda millatimizning go‘zal xulq, mehmondo‘st, mehr oqibatli ekanini boshqa millatlar oldida ko‘z-ko‘z qiladi, maqtovgaga sazovorligini yana bir bor namoyon qiladi.

Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, jumladan, bastakorlarning betakror ijod namunalari yuksak baholandi. Ayniqsa, mustaqillik davrida ijod qilgan ustoz hofizlar, xalq hofizlari unvoni berilgan: Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Muhammadjon Karimov, Ochilxon Otaxonov, Faxriddin Umarov, Odiljon Yusupov, Quvondiq Iskandarov, Ro‘zmat Jumaniyozov, Alijon Erkayev, Eson Lutfullayev, Qobiljon Yusupov, Hasan Rajabiy, Ismoiljon Vahobov, Isroiljon Vahobov, O‘lmas Saidjonov, Mahmud Yo‘ldoshev, Beknazar Do‘stmurodov, Farhod Davletov, Mahmudjon Tojiboyev, Soyibjon Niyozov, Orolmirza Safarov, Abdunabi Ibrohimovlar “mustaqilligimiz mevasi”dan bahramand bo‘lib ijod qilishlari uchun o‘z vaqtida Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan “O‘zbekiston xalq hofizi” orden medallar bilan taqdirlanganligi fikrimizning yana bir isboti.

Buyuk qadriyatlarimiz qatorida xalqimizning folklor san'ati ham o'z o'rnini topgan. Folklor san'ati ham Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm hamda Qoraqalpog'iston yo'nalishi bo'yicha o'z ijodiy uslubiga ega.

Jumladan, mavrigixonlik, baxshichilik, dostonchilik, yalla va laparchilik yo'nalishlarida juda ko'plab ustozlar o'z shogirdlariga o'rgatish orqali bizni davrimizgacha shakllanib, sayqallanib yetib kelgan. Buni folklor etnografik ansambllar, yakkaxon ijrochilar "Ustoz-shogird" me'rosxo'rliги natijasining yuksak namunasidir. Biz ularning xalq musiqasi namunalarini ijrochiligini eshitganimizda ustozlardan bizga o'z davrining hayoti, turmush tarzi, mehr oqibati, go'zallik dunyosi bilan boy bo'lgan o'tmishdagi ajdodlarimiz tarixi ko'z oldimizda gavdalanadi. Shu jumladan ustozlar ijodida aks ettirilgan kitoblarni varaqlab ashula va qo'shiqlar matnini, ularning mazmun mohiyatini olib qaraydigan bo'lsak, hozirgi zamon ma'naviyatiga, bolalarimiz xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan mehr nuri yog'ilib turgan me'rosdan foydalana oladigan ma'nolar yig'indisi jamul-jam.

Biz o'qituvchilar murabbiylar o'tgan ustozlar me'rosini chuqur o'rganibgina qolmay, balki kelajak avlodga, qorako'z bolajonlarimizga boy musiqame'rosimizni yetkazib, milliy urf-odat va an'analarimizni, ularning dunyo qarashlarini kengaytirib, o'zligini yo'qotmagan holda me'rosga mos farzand bo'lib yetishishlari uchun ularni yuksak merosxo'r avlod sifatida shakllantirmog'imiz bizning burchimizdir.

Shu o'rinda san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent G'anijon Xudoyevning Buxoro folklor musiqasiga bag'ishlangan bir qancha kitoblari mavjudki, bundan biz birgina Buxoro folklor musiqasi, qolaversa, Buxoro mumtoz musiqiy me'ros haqida salmoqli manbalarni uchratamiz. Bunda muallif folklor va mumtoz musiqa ijrochiligida o'chmas iz qoldirgan ulug' ustoz san'atkorlar ijodiga ilmiy yondashganligining guvohi bo'lamiz.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Do'stmurodov B., Matyoqubov Sh. Xalq hofizlari. – T.: "Ilm ziyosi" nashriyoti, 2011. – 70 b.
2. Xudoyev G'.M. Yakkaxon qo'shiqchilik (Buxorcha aytimlar asosida) / O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Fan., 2022. – 126 b. [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=2vt6\\_Y4AAAAJ&page\\_size=80&citation\\_for\\_view=2vt6\\_Y4AAAAJ:JV2RwH3\\_ST0C](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&page_size=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:JV2RwH3_ST0C)
3. Xudoyev G'. Yakkaxon qo'shiqchilikda Buxorcha aytimlarni o'rganish. O'zDSMI xabarlar jurnali. – T., 2022. el. manz: www.dsmi.uz, 2022-yil, 3-soni. 31-35b. [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=2vt6\\_Y4AAAAJ&page\\_size=80&citation\\_for\\_view=2vt6\\_Y4AAAAJ:NMxIID16LWMC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&page_size=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:NMxIID16LWMC)